

Practice Of Enriching Historical And Artistic Knowledge On The Basis Of Architectural Monuments

Mamadjanova Makhimir Rashidovna

Senior Lecturer, Department of “Uzbek Language and Literature, Languages”
Andijan State Medical Institute

Abstract

The development of historical and artistic thinking in high school students plays a decisive role in shaping their ability to critically analyze, explain, and relate to historical events and artistic expressions. This thesis analyzes the practice of enriching historical and artistic knowledge based on architectural monuments. Architectural monuments are of great importance not only as examples of cultural heritage, but also as a product of the historical memory and artistic thought of society. The study of these monuments offers the opportunity to deeply understand historical processes, expand the aesthetic worldview, and strengthen national identity. The study analyzes the role of architectural monuments in the educational process, methods of their scientific and practical study, as well as the impact of this process on the spiritual and educational education of young people.

Keywords: Architectural monuments, historical knowledge, artistic thought, cultural heritage, aesthetic education, educational process, national identity, spiritual and educational education.

Annotatsiya

Yuqori sinf o'quvchilarida tarixiy va badiiy tafakkurning rivojlanishi ularning tarixiy voqealar va badiiy ifodalarni tanqidiy tahlil qilish, izohlash, ularga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur tezisda me'moriy yodgorliklar asosida tarixiy va badiiy bilimlarni boyitish amaliyoti tahlil qilinadi. Me'moriy yodgorliklar nafaqat madaniy meros namunasi, balki jamiyatning tarixiy xotirasi va badiiy tafakkurining mahsuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yodgorliklarni o'rganish orqali tarixiy jarayonlarni chuqur anglash, estetik dunyoqarashni kengaytirish va milliy o'zlikni mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda me'moriy yodgorliklarning ta'lim jarayonidagi roli, ularni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish metodlari hamda bu jarayonning yoshlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Me'moriy yodgorliklar, tarixiy bilimlar, badiiy tafakkur, madaniy meros, estetik tarbiya, ta'lim jarayoni, milliy o'zlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya.

Kirish. Me'moriy obidalar tarixiy voqealarning guvohi bo'libgina qolmay, balki badiiy tafakkurning oliy namunasi. Bizgacha yetib kelgan bunday madaniy meroslar orqali bizgacha o'sha davr jamoyatining estetik qarashlari, ijtimoiy tuzumi va diniy e'tiqodlari haqida qimmatbaxo ma'lumotlar yetib kelgan. "Sayqali ro'yi zamin" nomi bilan butun dunyoga tanilgan Samarqandagi Registon maydoni va Buxorodagi Ismoil somoniy maqbarasi kabi madaniy meroslarimiz o'quvchilarning tarixni o'rganish uchun asos bo'lib kelmoqda. [1]

O'quv jarayonlarida shu kabi madaniy meroslarimiz haqida ochiq darslar tashkil etish yoki shu kabi madaniy meroslarga ekskursiyalar uyishtirish ayniqsa yuqori sinf o'quvchilarining tarixiy va badiiy bilimlarini boyitishda muhim ahamiyatga egadir. Me'moriy obidalar haqida o'rganish orqali o'quvchilar o'zlari qiziqan tarix madaniyati bilan yaqindan tanishib, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishadi. madaniy meroslar haqida o'rganishning eng asosiy jihati shundaki, o'quvchilarda ularga nisbatan hurmat ruhi va madaniy merosni asrab-avaylash tuyg'ulari shakllanadi.

Me'moriy yodgorliklar o'quv jarayonlarini tashkil etish usullari.

Me'moriy yodgorliklar asosidagi ta'limiy jarayonni samarali tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish, ularning mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu usul nafaqat ularning bilimlarini boyitadi, balki tahlil qilish va mushohada yuritish kabi muhim ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Bundan tashqari, me'moriy yodgorliklar asosida tarixiy va badiiy bilimlarni boyitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali yodgorliklarni onlayn tarzda o'rganish imkoniyati ta'lim jarayoniga yangi qirralar qo'shadi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilar me'moriy yodgorliklarni yondosh voqealar kontekstida ko'ra olishadi, ularning shakl va strukturasi chuqurroq anglab yetishadi. [2]

Bundan tashqari, raqamli resurslar orqali me'moriy yodgorliklarning 3D maketlarini yaratish, ularni yuqori sinf o'quvchi yoshlariga virtual sayohat sifatida namoyish etish, shu bilan birga, tarixiy ma'lumotlar bilan boyitilgan videofilmlar, elektron darsliklar vositasida ma'ruzalarni ko'rgazmali, jonli tarzda tashkil etish mumkin. Bunday hujjatlar yordamida o'quvchilar o'tmish voqealarini chuqurroq tushunish imkoniga ega bo'ladilar. [3]

Shuningdek, tasviriy san'at asarlari orqali me'moriy yodgorliklarning badiiy qimmatini ochib berish mumkin. Bu kabi usullar orqali me'moriy obidalarni dars jarayonida o'quvchilarga tanishtirish ularning badiiy estetik didini oshirib, madaniy meroslarimizga bo'lgan hurmatni yana bir kara ortirishga hismat qiladi.

Me'moriy yodgorliklar asosida tarixiy va badiiy bilimlarni boyitish amaliyoti. Bu murakab jarayon haqida bir qancha olimlar bahs-munozaralar qilishgan. Me'moriy

yodgorliklar asosida tarixiy va badiiy bilimlarni amaliyotga joriy qilish jarayoni turli yondashuvlarga ega. Bu yondashuvlar bir tomondan, tarixiy bilimlar aniq faktlar, ilmiy metodlar bilan chuqurlashsa, ikkinchi tomondan, badiiy tushunish tarixiy voqelikka ruhiyat, estetika, fantaziya, ramziy mazmun ko'chirib, bilish jarayonini boyitadi. Natijada, tarixiy tafakkur va badiiy ta'fakkur uyg'unlashgan holda me'moriy yodgorliklar orqali boyitiladigan bilimlar majmuasi juda samarali platformaga aylanadi. Bunday platformada yosh avlodni tarbiyalash, milliy xotirani mustahkamlash, jahon madaniyatidan boxabar bo'lish, estetik didni oshirish, tarixiy merosni qadrlash kabi ko'plab maqsadlarga erishish mumkin. Shu tariqa, me'moriy yodgorliklar tarixiy-badiiy tarbiyaning asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.[4]

Xulosa. Dars jarayonlarida me'moriy yodgorliklar asosida tarixiy va badiiy bilimlarni boyitish orqali yuqori sinf o'quvchilarining estetik madaniyatini oshirish va tarixiy-madaniy meroslarimizga hurmat ruhini shakllantirish bugungi ta'limning eng katta maqsadidir. Fan ustozlari fanlararo integratsiya, tajribaviy va texnologik yondashuvlarni qo'llash va madaniy meroslarga yuqori sinf o'quvchilari bilan birgalikda ekskuriyalar tashkil etish orqali o'quvchilarning tarix va san'atni chuqurroq tushunishlariga yordam berib, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun muhim turtki bo'la olashadi. O'quvchilar tarixiy voqealar va badiiy ifodalar bilan shug'ullanar ekan, ular nafaqat tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni oshiradi, balki inson tajribasining madaniy va ijtimoiy jihatlarini haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Рахимов У. А. и др. САМАРҚАНД
ШАҲРИДАГИ МОДДИЙ МАДАНИЙ
МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ

ЖОЙЛАШГАН ЎРНИНИ
ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН
ФОЙДАЛАНИБ АНИҚЛАШ

//RESEARCH AND EDUCATION. –
2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 117-125.

Адилов З. Р. ЁШЛАРГА МАДАНИЙ
МЕРОС ҲАЗИНАСИНИ ТАРҒИБ
ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ //IJTIMOIY
FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN
ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №.
4. – С. 124-130.

Murodjon o'g'li U. I. "TARIXIY TAFAKKUR"
VA "KASBIY KOMPETENTLIK"
TUSHUNCHALARINING IJTIMOYIY-
FALSAFIY VA PEDAGOGIK
TALQINI: Yangi O'zbekiston
taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va
rivojlanish omillari //Yangi
O'zbekiston taraqqiyotida
tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish
omillari. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С.
55-63.

Gulmurodov F. E. et al. O 'zbekistonda
madaniy meros obyektlarini saqlash
va qayta tiklashda 3d
texnologiyasining ahamiyati
//Journal of innovations in scientific
and educational research. – 2023. –
Т. 6. – №. 4. – С. 500-506.